



FALERONIM BIRLIKLAR ONAMASTIKANING OBEYKTI SIFATIDA

Pardayev Ergash Erkinovich

70111801 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi talabasi, Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7471572>

ARTICLE INFO

Received: 13th December 2022

Accepted: 21th December 2022

Online: 22th December 2022

KEY WORDS

Onomastika, faleronim, medal nomlari, unvon nomlari, falera.

ABSTRACT

Mazkur maqola tilshunoslikda faleronim birliklar tadqiqiga bag'ishlangan. Shuningdek maqolada onomastic birlik hisoblanmish faleronimlarning lingvistik xususiyatlari, etimologiyasi va leksik-semantik xususiyatlari tahliliy misollar orqali izchil o'rganilgan va maqolada faleronim birliklarning onomasika rivojiddgia ahamiyati asoslab berilgan.

Atoqli otlarning paydo bo'lishi, rivoji ko'pgina lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liqdir. Bu omillar ta'sirida shakllanayotgan atoqli otlar (onomastik birliklar) biz kundalik hayotimizda asosiy faoliyatlarimizdan biri sanalmish nutqimizning manbasini boyitishga xizmat qilmoqda. Shu sababli bugun kun til o'rganuvchisidan onomastika (atoqli otlarni o'rganuvchi fan)ni chuqur egallash ahamiyat kasb etmoqda.

Tildagi atoqli otlarni, ularning paydo bo'lishi, motivativ asoslarini, semantikasi, lisoniy strukturasi tilshunoslikning onomastika bo'limi tadqiq qiladi. **Onomastika** - aslida grekcha *onomastikós* (ὄνομαστικός) so'zidan olingan bo'lib, "nom berish san'ati" ma'nosini bildiradi [2, C.96]. Onomastikaning ko'lami keng bo'lganligi bois, ularni mikro va makro ko'lamlarga ajratilib o'rganiladi. Biz mazkur maqolada makro ko'lam elementi bo'lgan faleronimlar haqida so'z yuritmoqchimiz.

Tilshunoslikda onomastikaning makro ko'lamiga tegishli bo'lgan faleronim birliklar hali hamon o'zbek onomastikasida nominatsion-motivatsion, derivatsion, struktural tipologik, grammatik,

leksikografik xususiyatlarini tadqiq qilish bilan birgalikda, ularning ijtimoiy –siyosiy, ma'naviy - ma'rifiy , madaniy etnografik jihatlari tomonidan yetarlicha o'rganilmagan.

So'nggi vaqtlarda tilshunoslikda faleronim birliklar tadqiqiga ham qiziqish oshib bormoqda. Xususan jahon tilshunoslaridan A.V Superenskaya, rus tilshunoslaridan T.V.Shmeleva va o'zbek tilshunosligidan E.A.Begmatovlar [1] o'z ishlarida lisoniy jihatdan tahlil qilishgan va ma'lumotlar berishgan. Biroq, faleronimlarning semantik, lingvomadaniy hamda tarjimashunoslik jihatdan o'zbek va ingliz tillari misolida chog'ishtirma tadqiqi yetarlicha o'rganilmagan. Bundan ko'rinib turibdi-ki, faleronim birliklar o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri bo'lib turibdi. Garchi biz mahalliy yoki xorijiy tilshunoslik tomondan so'z olib borsakda, timsollar, ramzlar va marosimlar nomlarini tarixiy nuqtai nazardan qaramasak, xususan uning lingvistik yoki kognitiv xususiyatlarini keng yoritib berolmaymiz.

Faleronim atamasi *phaleronym* grekcha "φάλαρον" *phálera* 'falera' "medal", ὄμονα "ism" bo'lib [3], metall



bezaklar yani harbiy sohalarda mukofot sifatida berilgan unvonlar deb yuritiladi. Faleristika atamasi ham ushbu so'zdan kelib chiqqan. Unvonlar medallar ramzlar shakllari turlari tariflari va tarixini organuvchi fan sifatida biz Bonistika, Geraldika hamda Numizmatika kabi sohalarni ham ayta olamiz. Lekin tilshunoslik nuqtai nazardan ular onomastikaning obe'kti.

Yuqoridagi tariflarni birlashtirib, bir so'z bilan aytganda faleronimlar unvonlar, medallar, ramzlar, timsollarning nomlanishini bildiruvchi nutq birliklari.

Agar medallar va unvonlarni taqdirlash marosimlarining tarixiga nazar tashlasak, bu qadim urush davrlaridan boshlab toki hozirga qadar davom etmoqda. Shu sababli birinchi navbatda

harbiy marosimlarning oziga xos belgilariga to'xtalsak. Umuman olganda harbiy til oz ichiga harbiy razmlar, harbiy terminologiya va harbiy nomenkulatura kabi qismlarni oladi. Ularning har biri, garchi u o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, tarkibiy va kognitiv jihatdan, lekin bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Harbiy ramzlar – o'z mamlakatining ramzlari asosida armiyaning harbiy belgilarini bildiruvchi belgilar tizimidir.

Harbiy ramzlar va marosimlar davlat Qurolli kuchlarining harbiy tuzilmalari va bo'linmalarida qabul qilingan ramziy belgilar va an'anaviy marosimlardir: bularga *jang bayrog'i, bayroq, harbiy standartlar, harbiy ramzlar (ramz, tovar, gerb) va harbiy nishonlar* kiradi.



O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bayrog'i (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi Farmoniga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bayrog'i [4] (keyingi o'rinlarda – bayroq deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga xos bo'lgan

xususiyatlarini ifodalovchi idoraviy rasmiy ramz hisoblanadi <...>. Bayroqning old va orqa tomoni o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining rasmiy emblemasi (timsoli) tasvirlangan. Bayroq tepasida «O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI», pastida «MILLIY GVARDIYASI» degan so'zlar gorizontol shaklda bitilgan. <...>





O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi emblemasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi Farmoniga muvofiq tasdiqlangan) <...> , unibg doirasini o'rab turgan aylana chiziqlar tepasiga – lotin alifbosida tillarang katta harflar bilan «**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**», pastida – «**MILLIY GWARDIYASI**» degan so'zlar o'tgan. Yozuvlarni aylananing har ikki tomondan mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash kabi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining vazifalarini tasvirlovchi oliviya o'simligi shohlari ajratib turibdi. Doiraning tepasida tillarang katta harflar bilan lotin alifbosidagi «**MILLAT MANFAATLARI HIMOYASIDA**» nomli shior bitilgan <...>. Keltirilgan namunada «**MILLIY GWARDIYASI**»

faleronim birlik hisoblanadi. Bu kabi faleronim birliklarga davlatimizning ko'plab unvon, medal, orden, mukofot nomlarini kiritish mumkin. Jumladan: “*O'zbekiston Qahramoni*” unvoni, “*Oltin Yulduz*” medali, “*Zulfiya*” mukofati, “*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi*” unvoni, “*Shuxrat*” medali va x.k. Bu birliklar nomlanishi milliy madaniyat va qadriyatlarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tilshunoslikda faleronim birliklar onomastikaning ob'ekti va ularni tadqiq qilish nafaqat onomastikani chuqur o'rganish, shuningdek millatning madaniyati, tarixi va ijtimoiy xususiyatlarini ham o'rganishga keng imkon beradi.

References:

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
2. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С.96
3. Room, Adrian (1996). An Alphabetical Guide to the Language of Name Studies. Lanham and London: The Scarecrow Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bayrog'i .- <https://www.milliygvardiya.uz/oz/menu/simvolika->